

Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Samarqand viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 34,5 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil 1-yanvar holatiga, birlik	2026-yil 1-yanvar holatiga, birlik
Samarqand viloyati	31 740	34 495
Samarqand sh.	9 757	10 808
Kattaqo'rg'on sh.	1 060	1 136
<i>tumanlar</i>		
Oqdaryo	1 235	1 363
Bulung'ur	1 348	1 418
Jomboy	1 206	1 294
Ishtixon	1 278	1 585
Kattaqo'rg'on	1 487	1 618
Qo'shrabot	782	931
Narpay	1 027	1 143
Payariq	1 470	1 610
Pastdarg'om	2 323	2 497
Paxtachi	833	886
Samarqand	2 966	3 009
Nurobod	995	1 123
Urgut	2 306	2 616
Toyloq	1 397	1 458

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


Iqtisodiy faoliyat turlari



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-dekabrida 6,5 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



■ Iqtisodiy faoliyat turlari

2025-yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 2 457 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 917 ta, boshqa xizmatlar 891 ta hamda sanoatda 771 tani tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Samarqand viloyati	5 582	4 762
Samarqand sh.	1 373	1 593
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar	171	106
Oqdaryo	208	206
Bulung'ur	315	228
Jomboy	180	167
Ishtixon	207	225
Kattaqo'rg'on	342	220
Qo'shrabot	163	135
Narpay	184	158
Payariq	202	213
Pastdarg'om	433	353
Paxtachi	184	114
Samarqand	826	389
Nurobod	220	152
Urgut	306	344
Toyloq	268	159

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025-yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,5 % ni tashkil qilib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan 2,9 % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 28 625,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 49,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 97,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bulung'ur tumani (99,3%), Oqdaryo tumani (96,3%), Payariq tumani (96,6 %), Qo'shrabot tumani (95,6,%) va Urgut tumani (84,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 16 277,3 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 87,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 120,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahri (100,0 %), Urgut tumani (96,8 %), Payariq tumani (96,3%) va Kattaqo'rg'on tuman (97,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 24 285,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 63,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 146,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Nurobod tumani (93,3 %), Oqdaryo va (87,4 %), Narpay tumanlari (87,4 %) va Urgut tumani (85,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 56 206,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 92,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 102,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahri (99,7 %), Urgut (99,3 %), Paxtachi (99,0 %), Ishtixon (94,9 %) va Qo'shrabot (99,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 34 146,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 88,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Kattaqo'rg'on shahri (100,0%), Jomboy (99,4 %), Ishtixon (99,3 %), Narpay (99,5 %), Payariq (99,0 %) va Oqdaryo (98,3 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 50 911,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 65,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 114,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Oqdaryo (82,5 %), Qo'shrabot (87,4 %), Narpay (86,0 %), Jomboy (83,4 %) va Ishtixon (83,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 516,5 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 44,9 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bulung'ur, Oqdaryo, Payariq va Qo'shrabot tumanlarida – 100,0 %, Narpay tumanida – 96,8 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 81,4 % va Urgut tumanida – 84,5% ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 1 181,6 million AQSH dollarini yoki jami importning 40,5 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Payariq tumanida 99,3 %, Qo'shrabot tumanida – 99,6 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 98,9 %, Ishtixon tumanida – 88,2 %, Oqdaryo tumanida – 91,0 %, Nurobod tumanida – 75,2 %, Urgut tumanida – 80,7 %, Kattaqo'rg'on tumanida – 70,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025-yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,5 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,2 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 85,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,1% ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,2 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 30,7% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrida esa 47,7 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-dekabrida nisbatan 2,8 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 43,7 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrida 48,2 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabrida 6,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 4,0 % ga pasaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 51,2 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrida 55,1 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 38,9 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrida 43,1 % yoki 4,2 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabrida 4,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 1,7 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 54,8 %ni, savdoda – 48,9 % ni, qurilishda – 40,2,% ni va sanoat sohasida – 41,4,% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 49,7 %ni, sanoat va savdo – 51,0 % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 41,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish – 8,8 % ni, xizmatlar sohasida – 4,9 % ni va sanoat sohasida – 7,6 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:

M.Suyarov
66 235-44-85 (3030)

Manzil:

140100, Samarqand sh.,
U.Tursunov ko'chasi, 82-uy
